



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 41-47 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XALQARO FAROVONLIK INDEKSLARI BO'YICHA O'ZBEKISTONNING REYTING O'ZGARISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH



Norqobilov Nusratilla Norsaitovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nusrat.1977@mail.ru

ORCID: 0009-0006-5045-1194

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro farovonlik indeklari bo'yicha reytinglardagi o'zgarishlari tahlil qilinadi. Xususan, Legatum Prosperity Index, Human Development Index (HDI), Global Happiness Index kabi yetakchi indekslar asosida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, oshirishga takliflarlar berildi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston reytingi, farovonlik indeklari, Legatum Prosperity Index, Human Development Index, Global Happiness Index, turmush sifati, xalqaro reytinglar.

Аннотация. В статье анализируется динамика рейтингов Республики Узбекистан по международным индексам благосостояния. В частности, формулируются предложения по повышению уровня социально-экономического развития страны на основе таких ведущих индексов, как Индекс благосостояния Legatum, Индекс развития человеческого потенциала (ИРЧП) и Глобальный индекс счастья.

Ключевые слова: Рейтинг Узбекистана, индексы благосостояния, индекс благосостояния Legatum, индекс развития человеческого потенциала, глобальный индекс счастья, качество жизни, международные рейтинги.

Annotation. The article analyzes changes in the ratings of the Republic of Uzbekistan according to international prosperity indices. In particular, proposals are made to increase the country's level of socio-economic development based on leading indices such as the Legatum Prosperity Index, Human Development Index (HDI), and Global Happiness Index.

Keywords: Uzbekistan ranking, prosperity indices, Legatum Prosperity Index, Human Development Index, Global Happiness Index, quality of life, international rankings.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi sifatida xalqaro maydonda mamlakatning nufuzi oshib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro farovonlik indeklari kabi obyektiv baholash vositalarida O'zbekistonning reyting ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Farovonlik indeklari davlatlarning nafaqat iqtisodiy salohiyati, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, huquq ustuvorligi, ijtimoiy kapital va boshqa ijtimoiy-siyosiy mezonlar asosida baholanadigan ko'p qirrali indikatorlar tizimi bo'lib, ular orqali mamlakatning taraqqiyot darajasi va xalq farovonligi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Xususan, Legatum Prosperity Index, Human Development Index (HDI), Global Innovation Index, E-Government Development Index kabi reytinglar O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu indekslardagi ijobiy o'zgarishlar davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, samarali boshqaruv, inson kapitaliga bo'lgan e'tibor va ochiq siyosatning bevosita mahsuli hisoblanadi.

Farovonlik ko'rsatkichlarining oshishi esa nafaqat mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, balki xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishonch muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro tadqiqotlar ko'rsatmoqda-ki, farovonlikni aniqlovchi indekslar davlatlar taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning hayot sifati haqida muhim axborot manbai hisoblanadi.

Xususan, xorijiy olimlarning farovonlik indeksleri bo'yicha olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bu indekslar orqali mamlakatlar o'zlarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlarining samarasini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Legatum Institute tomonidan ishlab chiqilgan Legatum Prosperity Index xalqaro miqyosda eng keng qamrovli indekslardan biri bo'lib, 167 davlatni 12 yo'nalish bo'yicha baholaydi: xavfsizlik, boshqaruv sifati, iqtisodiy sifat, ta'lim, sog'liqni saqlash, shaxsiy erkinliklar va boshqalar.

A. Hall va P. Toms (2020) o'zlarining "Well-being and Governance in Transition Economies" nomli ishlarida farovonlik indekslaridagi ijobiy siljishlar ko'pincha hukumat islohotlarining shaffofligi, hisobdorlik darajasi va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining kuchayishi bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston so'nggi yillarda aynan shu sohalarida o'z reytingini yaxshilagan [1].

Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan 2021-yilgi tahlilda O'zbekistonning "Governance" va "Social Capital" yo'nalishlarida reytingining ko'tarilishi islohotlarning ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning 2017-2021 yillarda ochiqlik, korrupsiyaga qarshi kurash va raqamli boshqaruv bo'yicha qilgan yutuqlari xalqaro indeksarga bevosita ta'sir qilgani ilmiy asos bilan isbotlangan [2].

Shuningdek, D. McGillivray o'z tadqiqotida Legatum indeksidagi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy sifat mezonlari o'zaro kuchli bog'liqlikda ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, O'zbekistondagi bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni va iqtisodiy liberallashtirish reytinglardagi o'sishni qo'llab-quvvatlagan asosiy omillardan biridir [3].

Xalqaro indekslarda O'zbekistonning pozitsiyasini baholovchi yana bir muhim tadqiqot bu K. Richards tomonidan olib borilgan tahlil bo'lib, unda O'zbekistonning "Education" va "Health" yo'nalishlarida ijobiy siljishlar ko'rsatilgan. Muallif ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining ortishi fuqarolarning farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatganini raqamli tahlil asosida ko'rsatadi [4].

O'zbekistonlik tadqiqotchi T. T. Xakimov o'zining 2022-yildagi ilmiy maqolasida farovonlik indekslarining metodologik asoslarini va ularning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, Legatum Prosperity Index

bo'yicha O'zbekistonning so'nggi yillardagi siljishi iqtisodiy islohotlar, sog'liqni saqlash sohasiga e'tibor ortishi, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimidagi yaxshilanishlar bilan bevosita bog'liqdir [5].

O'zbekistondagi iqtisodiy xavfsizlik va boshqaruv sifatining indekslarga ta'siri masalasida G. I. Raximova o'z tadqiqotida xalqaro reytinglarda e'tiborga olinadigan indikatorlar xususan, davlat boshqaruvi sifati, qonun ustuvorligi va korrupsiyaning kamayishi O'zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar bilan uyg'unlashib borayotganini ta'kidlaydi. [6].

MDH doirasidagi tadqiqotlarda ham farovonlik indeksleri Markaziy Osiyo kontekstida o'rganilmoqda. Jumladan, rossiyalik olim A. V. Suvorov o'z maqolasida sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi mamlakatlarning farovonlik indekslaridagi o'zgarishlarini solishtirgan holda tahlil qiladi. Unga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiy o'sish barqarorligi, ishsizlik darajasining pasayishi va ta'lim tizimidagi raqamlashtirish islohotlari sababli mintaqada nisbatan yaxshi reytinglarga ega bo'lmoqda deb ta'kidlaydi [7].

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi olimi D. Qurbonov tomonidan tayyorlangan tahliliy sharhda O'zbekistonning Legatum Prosperity Index va Human Development Index bo'yicha yillik o'zgarishlar raqamlar asosida keltirilgan. Tadqiqotda ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash xarajatlari va fuqarolik institutlarining rivoji asosiy o'sish omillari sifatida ko'rsatilgan [8].

M. Abdullayeva o'z tadqiqotida O'zbekistonning HDI bo'yicha ko'rsatkichlari oshayotganini, biroq hududiy darajada bu ijobiy dinamikani sezilarli tafovutlar soya qilayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro indekslardagi milliy reyting ijobiy bo'lsa-da, ichki hududiy farqlarni chuqurroq hisobga olish talab qilinadi [9].

Shuningdek, 2022-2024 yillarda chop etilgan maqolalarda O'zbekistonning xalqaro indekslardagi reyting o'zgarishlari islohotlar natijasi sifatida ijobiy talqin qilinadi. Xususan, investitsion muhitni yaxshilash, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar HDI va Legatum Prosperity Index'dagi o'sishga asosiy hissa qo'shgan omillar sifatida ko'rsatiladi [10].

Yuqoridagi tadqiqotlar umumiy xulosani tasdiqlaydi O'zbekistonning xalqaro farovonlik indekslaridagi reyting o'zgarishlari davlatning izchil siyosati, islohotlar samaradorligi va xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan boshqaruv modeliga tayanmoqda.

Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan milliy strategiyalar xususan, "Yangi O'zbekiston -2030" strategiyasi xorijiy ekspertlar tomonidan ham ijobiy baholanmoqda va ularning fikriga ko'ra, bu siyosiy hujjatlar xalqaro indekslarda yuqori natijalarga erishishning asosiy faktori bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar ko'proq davlat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy soha rivoji va xalqaro reytinglar metodologiyasining O'zbekiston sharoitiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Mazkur tahlillarni umumlashtirar ekanmiz, xorijlik mamlakatlar va O'zbekiston olimlari farovonlik indekslaridagi reyting o'zgarishlarini tahlil qilishda quyidagi asosiy omillarga e'tibor qaratgan: institutsional islohotlar, inson kapitaliga sarmoya, ijtimoiy xizmatlar sifati, korrupsiyaga qarshi kurash va raqamli transformatsiya.

Bu omillar, o'zaro uyg'un holda, O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy o'sish tendensiyasini shakllantirayotgan asosiy harakatlantiruvchi kuchlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning xalqaro farovonlik indekslaridagi reyting o'zgarishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, boshqaruv sifatini oshirish, sog'liqni saqlash va raqamli xizmatlar sohalarida izchil yutuqlarga erishmoqda.

Jumladan, **Legatum Prosperity Index**da O'zbekiston 100-o'ringa ko'tarilib, ayniqsa ijtimoiy kapital, sog'liq va xavfsizlik yo'nalishlarida ijobiy natijalarni namoyon etgan.

E-Government Development Indexda esa O'zbekiston 63-o'ringa yetib borib, "juda yuqori" darajadagi davlatlar qatoriga kirgan. Bu raqamli transformatsiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. **Global Innovation Index**da esa barqaror pozitsiyalar saqlangan bo'lsa-da, ilmiy va innovatsion natijalar bo'yicha salohiyatni to'liq yuzaga chiqarish uchun qo'shimcha harakatlar zarur.

O'zbekiston xalqaro reytinglarda ijobiy siljishlarga erishgan bo'lib, bu ichki siyosiy irodaning kuchliligi va strategik islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Biroq reytinglardagi barqaror o'sishni saqlab qolish va kuchaytirish uchun mavjud zaif tomonlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval

Legatum Prosperity Index bo'yicha O'zbekistonning 12 yo'nalishdagi ko'rsatkichlari 2015, 2020 va 2024 yillar kesimida jadval shaklida taqdim etilgan¹

No	Yo'nalish	2015 (ball)	2020 (ball)	2024 (ball)
1	Safety & Security	48.5	55.4	60.2
2	Personal Freedom	41.2	46.1	50.3
3	Governance	38.4	45.7	49.9
4	Social Capital	53.1	57.9	61.5
5	Investment Environment	44.7	50.8	56.3
6	Enterprise Conditions	42.8	49.6	54.1
7	Market Access & Infrastructure	40.3	47.2	51.6
8	Economic Quality	45.1	52.3	57.8
9	Living Conditions	46.2	52.7	59.2
10	Health	50.3	56.4	62.1
11	Education	49.7	53.1	58.4
12	Natural Environment	38.6	40.1	41.7

¹ Legatum Institute. *The Legatum Prosperity Index: Methodology and Technical Report*. – London: Legatum Institute, 2023. – 145 b.

1-jadvalda ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning farovonlik indeksi bo'yicha barcha 12 yo'nalishda ballar oshgan. Ayniqsa, **sog'liqni saqlash (Health)**, **ijtimoiy kapital (Social Capital)** va **xavfsizlik (Safety Security)** yo'nalishlarida sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lib, bu sohalarida 10 balldan ortiq ijobiy siljish qayd etilgan. Shuningdek, **iqtisodiy sifat (Economic Quality)**, **investitsiya muhiti** va **korxona sharoitlarida** ham barqaror ijobiy dinamika kuzatilmoqda, bu esa iqtisodiy islohotlarning amaliy natijasidir.

Eng past o'sish sur'ati **Natural Environment** (Tabiiy muhit) yo'nalishida bo'lib, bu sohaga e'tibor va resurslar yetarli darajada yo'naltirilmaganini ko'rsatadi.

O'zbekistonning farovonlik indeksi bo'yicha yutuqlari tizimli islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari samaradorligidan dalolat bermoqda (2-jadvalda).

2-jadval

Legatum Prosperity Index" bo'yicha O'zbekistonning 2023-yil reyting ko'rsatkichlari 12 yo'nalish bo'yicha jadval shaklida keltirilgan²

No	Yo'nalish	O'zbekiston o'rnini (2023)
1	Social Capital (ijtimoiy kapital)	46
2	Health (sog'liq)	49
3	Safety & Security (xavfsizlik)	53
4	Education	73
5	Economic Quality (iqtisodiy sifat)	79
6	Infrastructure & Market Access	104
7	Investment Environment	107
8	Enterprise Conditions	121
9	Governance	123
10	Personal Freedom	147
11	Natural Environment	162
12	Social Capital (ijtimoiy kapital)	46

2-jadvalda "Legatum Prosperity Index" bo'yicha O'zbekistonning 2023-yil reytingi 12 yo'nalishda keltirilgan. 2023-yilgi reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston **ijtimoiy kapital (46-o'rin)**, **sog'liq (49-o'rin)** va **xavfsizlik (53-o'rin)** yo'nalishlarida eng yuqori natijalarga ega bo'lib, bu sohalarida olib borilgan ijtimoiy siyosat, tibbiyot xizmatlari sifatining oshishi va jamoaviy ishonchning mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Ta'lim (73-o'rin) va **iqtisodiy sifat (79-o'rin)** yo'nalishlari ham nisbatan barqaror o'rinda bo'lib, bu O'zbekistonning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan choralari samara berayotganini bildiradi.

Biroq reytingda **infrastruktura va bozorga kirish (104-o'rin)**, **investitsiya muhiti (107-o'rin)** va ayniqsa **korxona sharoitlari (121-o'rin)**, **boshqaruv sifati (123-o'rin)** sohalarida sustlik kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy muhit va biznes yuritish imkoniyatlarini yanada yaxshilash zarurligini anglatadi.

²Legatum Institute. *The Legatum Prosperity Index 2023: Country Report - Uzbekistan*. - URL: <https://index.prosperity.com/globe/uzbekistan>

Eng past ko'rsatkichlar esa **shaxsiy erkinlik (147-o'rin)** va **tabiiy muhit (162-o'rin)** yo'nalishlariga to'g'ri keladi (3-jadvalda).

3-jadval

O'zbekiston 2024-yilda xalqaro indeks bo'yicha reytingi ³

No	Indeks	Reyting (so'nggi yil)	O'zgarish dinamikasi	Kuchli va zaif joylari
1	Legatum Prosperity Index	100-o'rin	2011-2023: +13 pog'ona	Ijtimoiy kapital, sog'liq; atrof- muhit zaif
2	Global Innovation Index	83-o'rin	2023-2024: 1 pog'ona pastlash	Inputs kuchli, outputs sust; mintaqada yuqori
3	E-Government Index	63-o'rin	2020-2024: +24 pog'ona o'sish	Raqamli xizmatlar o'smoqda

3-jadvalda O'zbekistonning 2024-yil holatiga ko'ra uchta asosiy xalqaro indeks bo'yicha reytingi, o'zgarish dinamikasi va kuchli hamda zaif tomonlari taqdim etilgan.

O'zbekiston **Legatum Prosperity Index** bo'yicha 100-o'ringa ko'tarilgan bo'lib, 2011-2023 yillar oralig'ida 13 pog'ona yuqorilashga erishgan.

Global Innovation Indexda O'zbekiston 83-o'rinda qayd etilib, bu 2023-yilga nisbatan 1 pog'ona pasayishni anglatadi. Shunga qaramay, innovatsion resurslar (inputs) kuchli bo'lib, ilmiy natijalar (outputs) zaifligicha qolmoqda. Eng e'tiborga molik natija **E-Government Development Index**da qayd etilgan, O'zbekiston 2020-yilda 87-o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 63-o'ringa ko'tarilib, "Juda yuqori" (Very High) kategoriyasiga kirgan. Bu raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruviga keng joriy etish, fuqarolarga onlayn xizmatlar ko'lamining kengaygani bilan bog'liq.

Shu bilan birga, innovatsiyalar samaradorligi va ekologik muhit bo'yicha qo'shimcha strategik choralar ko'rilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning xalqaro farovonlik indekslaridagi reyting o'zgarishlari so'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, ijtimoiy soha rivoji, iqtisodiy barqarorlik va boshqaruv tizimidagi yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro indekslar O'zbekistonning ayrim yo'nalishlarda, jumladan, atrof-muhit muhofazasi, innovatsion rivojlanish, fuqarolik erkinliklari va ta'lim sifati bo'yicha hali yetarli darajada raqobatbardosh emasligini ko'rsatmoqda.

Shu asosda, quyidagi **asosiy xulosa va takliflarni** ilgari surish mumkin:

-har bir xalqaro reyting va indeksga mas'ul organlar faoliyati aniq belgilanib, ularning natijadorligi reyting ko'rsatkichlari bilan bog'langan holda baholanishi zarur;

³ World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2024: Uzbekistan Country Profile*. – URL: https://www.wipo.int/global_innovation/index/en/

-sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoya sohalariga budget ajratmalarini maqbullashtirish, ularning samaradorligini oshirish orqali farovonlik indikatorlaridagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash maqsadga muvofiq;

-innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, startaplarni moliyalashtirish va oliy ta'lim muassasalari bilan texnologik integratsiyani kuchaytirish O'zbekistonning "Global Innovation Index" dagi reytingini sezilarli oshirish lozim;

-ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va suv resurslarini oqilona boshqarish orqali farovonlik indeksining "Natural Environment" bo'limidagi ko'rsatkichlarni yaxshilash zarur.

Umuman olganda, xalqaro farovonlik indeksleri O'zbekiston uchun nafaqat baholash vositasi, balki rivojlanishning strategik yo'nalishlarini aniqlovchi ko'rsatkichlar majmuasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar shu indekslar bilan uzviy bog'langan holda chuqurlashtirilsa, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'рни yanada barqaror va mustahkam boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hall A., Toms P. Well-being and Governance in Transition Economies. – London: Routledge, 2020. 212 p.
2. McGillivray D. Measuring prosperity in post-Soviet countries // Journal of Development Studies. – 2019. . 55(6). – P. 785–802.
3. Richards K. Social policy and prosperity in Central Asia: the case of Uzbekistan // Social Indicators Research. 2022. 160 (2). P. 521–540.
4. World Bank Group. Uzbekistan Country Update: Governance and Development Indicators. – Washington DC: World Bank Group, 2021.
5. Хакимов Т. Т. Международные рейтинги и благосостояние населения: опыт Узбекистана // Экономика и образование. 2022. №3. С. 89–94.
6. Рахимова Г. И. Государственное управление и рейтинговые показатели благосостояния в Узбекистане // Финансовая экономика. - 2021. - №11. С. 52–58.
7. Суворов А. В. Социальное благосостояние в странах СНГ: динамика и факторы // Журнал экономических исследований. 2020. №6. С. 102-110.
8. Qurbonov D. Xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'рни: muvaffaqiyati va kamchiliklari tahlili // Iqtisodiy taraqqiyot muammolari. 2023. №1. B. 25-31.
9. Abdullayeva M. Hududlar kesimida farovonlik ko'rsatkichlarining xalqaro indekslarga ta'siri // Iqtisodiy tahlil jurnali. T– 2025. 05.01. B. 112-119.
10. Akbarova B. Sh. O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rniga islohotlarning ta'siri // Ijtimoiy fanlar jurnali. 2023. T. 3, №24. B. 204–212.
11. <https://stat.uz>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

